
Munosabat

Ijtimoiy tarmoqlarda Uchko'prik tumanining markaziy ko'chasidagi svetoforning oldidagi avtomobil yo'lining o'q chizig'i – qatnov qismi yoki ajratuvchi tasma o'rtasidan o'tuvchi shartli chiziqning qo'lda chizilayotgani, aslida, ushbu chiziqlarning maxsus vositalar yordamida chizilishi lozimligi ta'kidlangan video tarqaldi.

Holat yuzasidan mas'ullarning ma'lum qilishicha, shu kuni maxsus texnikalarning ta'mirlanishi hisobiga shu davrda ishchilarning qo'lda chizish holatida video olingan. Keyinchalik texnikalar soz holga keltirilgach ish jarayonlari yana davom etgan.

2023-03-16 22:04:20